

AL-ANDALUSLIK ABUL AL-QOSIM AL-ZAHROVIYNING ZAMONAVIY TIBBIYOTGA QO'SHGAN HISSASI

Sardor Norboboyev Abdusamat o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada al-Andalusning mashhur tabibi va jarrohi Abu al-Qosim al-Zahroviyning tibbiyot ilmiga qo'shgan hisssasi tahlil qilinadi. Uning hayoti, ilmiy faoliyati va mashhur "Al-Tasrif" asarining mazmuni yoritilgan. Shuningdek, al-Zahroviyning jarrohlik, farmakologiya, anatomiya hamda tibbiy asbob-uskunalarni takomillashtirish sohalaridagi yutuqlari ko'rib chiqilgan. Maqolada uning ilmiy merosining Yevropa tibbiyotiga ta'siri va zamonaviy tibbiyot taraqqiyotidagi o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: al-Zahroviy, al-Tasrif, al-Andalus, Kordova, jarrohlik, tibbiyot, farmakologiya, tibbiy asboblari.

Abstract: This article examines the contribution of the famous Andalusian physician and surgeon Abu al-Qasim al-Zahrawi to medical science. It discusses his life, scholarly activity, and the content of his renowned work *Al-Tasrif*. Particular attention is given to his achievements in surgery, pharmacology, anatomy, and the development of medical instruments. The article also evaluates the influence of his scientific legacy on European medicine and its significance for the development of modern medical science.

Keywords: al-Zahrawi, Al-Tasrif, al-Andalus, Córdoba, surgery, medicine, pharmacology, medical instruments.

Аннотация: В данной статье рассматривается вклад выдающегося андалусского врача и хирурга Абу аль-Касима аз-Захрави в развитие медицинской науки. Освещаются его жизнь, научная деятельность и содержание знаменитого труда «Ат-Тасриф». Особое внимание уделяется достижениям учёного в области хирургии, фармакологии, анатомии и совершенствования медицинских инструментов. Также анализируется влияние его научного наследия на европейскую медицину и его значение для развития современной медицинской науки.

Ключевые слова: аз-Захрави, Ат-Тасриф, аль-Андалус, Кордова, хирургия, медицина, фармакология, медицинские инструменты.

Kirish. Abu al-Qasim al-Zahroviy, G'arbda ko'proq Albukasis (Albucasis) nomi bilan tanilgan, milodiy X asr oxiri va XI asr boshlarida yashagan buyuk arab tabibi va jarrohi edi. O'rta asrlar islom sivilizatsiyasi tibbiyot tarixining eng muhim

namoyandalaridan biri bo'lgan Abu al-Qosim al-Zahroviy (936–1013) al-Andalusdagi az-Zahro (Madinat az-Zahro) shahrida tug'ilgan. Uning to'liq ismi Abu al-Qosim Xalaf ibn al-Abbos al-Zahroviy al-Ansoriy bo'lgan.

U hayotining katta qismini Kordova shahrida, Andalusiya (hozirgi Ispaniya hududi) o'tkazgan. Al-Zahroviy zamonaviy tibbiyot asoslarini yaratishga qo'shgan hissasi va jarrohlik sohasidagi innovatsion faoliyati tufayli ko'pincha "zamonaviy jarrohlikning otasi" deb ataladi. U butun umrini tibbiyot va jarrohlik ilmini rivojlantirishga bag'ishlagan. Manbalarga ko'ra, u vafotidan ikki yil avval ham ilmiy faoliyatini davom ettirgan.

Tahlil va natijalar. O'rta asrlar davri islom olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy yutuqlar tufayli tarixda "oltin asr" sifatida tanilgan. Bu davrda tibbiyot sohasida muhim taraqqiyotlarga erishilib, zamonaviy tibbiyot amaliyotlarining asoslari yaratildi. Al-Zahroviy jarrohlik amaliyotining rivojlanishida muhim rol o'ynagan va Islom oltin asrining eng buyuk jarrohi sifatida e'tirof etilgan. Kordovada tahsil olgan va ushbu ilm markazining ustozlaridan saboq olgan al-Zahroviy musulmon jarrohlari orasida eng mashhur va asarlari eng keng tarqalgan jarroh hisoblanadi. U o'z davrida yuzlab tibbiy asbob-uskunalarni ixtiro qilgan bo'lib, ularning ayrimlari bugungi kunda ham qo'llaniladi. Shuningdek, u jarrohlik amaliyotining asosiy tamoyillarini tizimli ravishda bayon qilib bergan.

Al-Zahroviy o'z zamonasidan ancha ilgari ketgan olim sifatida tanilgan. U eng avvalo jarrohlik bo'yicha bilim va mahorati bilan mashhur bo'lsa-da, Andalusiya kimyogarlarning zamondoshi sifatida ham e'tirof etiladi. U zamonaviy plastik jarrohlik hamda turli jarrohlik ixtisosliklariga oid ko'plab amaliyotlar uchun jarrohlik usullarini tavsiflab bergan. Tabib va jarroh bo'lish bilan bir qatorda, al-Zahroviy tibbiyot talabalariga bilim berishga katta ishtiyoq bilan yondashgan mohir ustoz sifatida ham tanilgan. U shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyatini ta'kidlab, jamiyatning barcha qatlamlariga mansub bemorlarga davolash va g'amxo'rlik ko'rsatish zarurligini uqtirgan [1].

Biroq al-Zahroviyning ilm-fanga qo'shgan hissasi faqat shu bilan cheklanmagan. U buyuk pedagog va psixiatriya sohasiga qiziqqan mutaxassis bo'lib, farmatsiya va farmakologiyada sublimatsiya hamda distillatsiya usullari yordamida dori-darmonlar tayyorlashning dastlabki asoschilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, u bolalar tarbiyasi va xulq-atvor masalalariga ham e'tibor qaratgan. Bundan tashqari, al-Zahroviy Andalusiya Kordovadagi Ummaviy hukmdorlarining saroy tabibi sifatida ham xizmat qilgan.

Al-Zahroviy o'zining mashhur "Al-Tasrif" asarini arab tilida yozgan. Asar faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun mo'ljallanmagan bo'lib, sodda, ravon va tushunarli uslubda bitilgan. Shu sababli undan ham keng jamoatchilik, ham ilm ahli foydalana olgan.

Kitob to'rt qism va o'ttiz risoladan iborat. Birinchi qism birinchi risolani o'z ichiga olib, tibbiyot ilmining umumiy tamoyillari va nazariy asoslariga bag'ishlangan. Ikkinchi qism ikkinchi risoladan iborat bo'lib, kasalliklarning nosologiyasi va tasnifi masalalarini yoritadi. Uchinchi qism uchinchi risoladan yigirma to'qqizinchi risolagacha bo'lgan bo'limlarni qamrab oladi va asosan farmakologiya masalalariga bag'ishlangan.

Asarning to'rtinchi qismi esa o'ttizinchi risolani tashkil etadi. Ushbu qism o'z navbatida uch bo'limga bo'lingan. Birinchi bo'lim kuydirish (kauterizatsiya) usullariga, ikkinchi bo'lim turli jarrohlik amaliyotlariga, uchinchi bo'lim esa suyak sinishlari va chiqishlarini davolash usullariga bag'ishlangan. Har bir bo'limda qo'llaniladigan tibbiy asbob-uskunalarining tasvirlari berilgan va ularning tuzilishi hamda qo'llanish usullari batafsil tavsiflangan. Jumladan, kuydirish asboblari, kesish va yorish uchun ishlatiladigan qurollar, turli jarrohlik moslamalari hamda suyak sinishlarini davolashda qo'llaniladigan vositalar tasvirlangan [2].

Al-Zahroviy "Al-Tasrif" asarining aksariyat qismlarida o'zidan avvalgi ilmiy manbalarga murojaat qiladi. Farmakologiyaga bag'ishlangan bo'limlarda u Dioskorid nomini ko'p bora tilga oladi. Shuningdek, u islom davri tabiblarining, ayniqsa Al-Roziyning ilmiy qarashlari va tajribalaridan ham keng foydalangan.

Biroq al-Zahroviyning jarrohlik asboblari tavsiflashdagi bilimlari qaysi aniq manbalarga tayanganligi hozircha ma'lum emas. Shunga qaramay, asarda qadimgi Misrda keng qo'llanilgan ayrim dori shakllari haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu holat al-Zahroviyning tibbiy bilimlari faqat al-Andalus bilan cheklanib qolmaganini, balki islom dunyosining boshqa hududlarida shakllangan farmatsevtik va tibbiy tajribalarni ham o'zlashtirganini ko'rsatadi. Shu tariqa "Al-Tasrif" nafaqat o'rta asrlar islom tibbiyotining yirik ensiklopedik asari, balki qadimgi yunon, sharq va musulmon tibbiy an'analari birlashtirgan muhim ilmiy meros sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi.

Al-Zahroviy asarining muqaddimasida o'z davridagi ko'plab tabiblarni tanqid qilib, ularda nazariyaning haddan tashqari ustunligi va amaliy tajribaning yetishmasligini ta'kidlaydi. Uning faoliyati ko'proq jarrohlik bilan bog'liq bo'lsa-da, asarning eng e'tiborga molik jihatlaridan biri farmakologiya sohasiga bag'ishlangan qismdir. Bu yerda u chuqur bilim, mustaqil fikrlash va yangicha yondashuv namoyish etadi [3].

Uning dori tayyorlash texnikalari va usullariga bag'ishlangan batafsil tavsiflari ayniqsa diqqatga sazovordir. Asarda hayvon, o'simlik va mineral manbalardan olinadigan dori vositalarini tayyorlash jarayonlari keng yoritilgan. Masalan, moylarni tozalash, suvni distillash, sirkani oqartirish, hayvon yog'larini tozalash, asal va mumni ajratib olish va tozalash, ko'z tomchilarini quritish, minerallarni yuvish va kuydirish, ekstraktlar tayyorlash kabi jarayonlar batafsil tushuntiriladi.

"Al-Tasrif" asarida ilgari ma'lum bo'lmagan ayrim farmatsevtik preparatlar ham

uchraydi. Xususan, kukun shaklidagi dorilar asosidagi preparatlarning aksariyati undan oldingi tibbiyot adabiyotlarida kuzatilmaydi. Al-Zahroviy ularni inson organizmidagi namlikning ortib ketishini muvozanatlashtirish uchun ayniqsa foydali deb hisoblagan. Uning fikricha, organizmdagi ortiqcha namlik diareya, sistit va gidrosefaliya kabi kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin edi.

Bundan tashqari, al-Zahroviyning kitobida al-Andalusda yozilgan kosmetologiyaga bag'ishlangan ilk mustaqil risola ham mavjud. Unda atirlar tayyorlash, xushbo'y suvlarni distillash, go'zallikni saqlash usullari, teri uchun losonlar, dezodorantlar, sochni parvarish qilish vositalari va boshqa kosmetik mahsulotlar haqida ma'lumot beriladi.

Al-Zahroviy tarixda jarrohlik bog'lamlarida paxtadan foydalangan ilk jarroh sifatida e'tirof etiladi. U paxtani qon ketishini to'xtatish, singan suyaklarni shinalashda yumshoq tayanch sifatida hamda qov suyagi sinishlarida vaginal tampon sifatida qo'llagan. Shuningdek, u siydik pufagini kesish orqali buyrak va siydik yo'llaridagi toshlarni olib tashlash usulini amaliyotga joriy etgan [4].

Al-Zahroviy ginekologik operatsiyalarni o'tkazishda hozirgi kunda ham ma'lum bo'lgan litotomiya holatini (lithotomy position) tavsiya etgan birinchi tabiblardan biri hisoblanadi. Uning risolasida vaginal spekulumning tasviri, shuningdek o'lik homilani chiqarib olish uchun mo'ljallangan ikki xil qisqichning chizmalari ham keltirilgan.

Al-Zahroviy jarrohlik amaliyotida muvaffaqiyatga erishish uchun anatomiya ilmini chuqur bilish zarurligini alohida ta'kidlagan. Uning fikricha, anatomiya bo'yicha puxta bilimga ega bo'lmasdan turib, yaxshi jarroh bo'lish mumkin emas. U va boshqa ko'plab buyuk tabiblar anatomiya fanini o'rganishni nafaqat tibbiyot kasbining ajralmas qismi, balki inson tanasining mukammalligini — Yaratganning eng oliy ijod namunalaridan birini — anglash vositasi deb hisoblaganlar.

“Jarrohlik va asboblarning haqida” — Al-Zahroviy tomonidan yozilgan va rasmlar bilan boyitilgan jarrohlik qo'llanmasidir. Ushbu asar tibbiyot tarixiga ko'plab texnologik yangiliklarni olib kirgan bo'lib, ayniqsa turli jarrohlik amaliyotlarida qaysi asboblardan foydalanish kerakligini batafsil ko'rsatib bergan.

Al-Zahroviy asarda qo'llaniladigan har bir asbobning chizmasini keltirib, muolaja bosqichlarini qanday bajarish lozimligini aniq tushuntiradi. Asarning to'liq matni uch kitobdan iborat bo'lib, u asosan jarrohlik sohasida chuqurroq bilim olishni istagan tibbiyot talabalariga mo'ljallangan. Unda turli operatsiyalarni bajarish usullari hamda ular uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar batafsil bayon qilingan [5].

Qadimgi davrlarda tibbiy asbob-uskunalar, odatda, mis qotishmalaridan, ayniqsa bronzadan tayyorlangan. Temir esa asosan skalpellar va kuydirish (kauterizatsiya) asboblarining tig'lari uchun ishlatilgan. Biroq Al-Zahroviy bundan farqli ravishda, hatto zondlar (tekshiruv asboblari) ham po'latdan yasalishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu esa uning tibbiy asboblarning sifati va mustahkamligiga katta e'tibor berganini

ko'rsatadi [6].

Ayrim tabiblar oltindan yasalgan kuydirish asboblari temirdan tayyorlangan odatiy asboblarga qaraganda samaraliroq deb hisoblaganlar. Ibn al-Qufning ma'lumotlariga ko'ra, oltin kauterizatsiya asboblari ayrim hollarda afzal deb qaralgan. Bu ma'lumotlar o'rta asrlar islom tibbiyotida nafaqat davolash usullariga, balki tibbiy asbob-uskunalarining materiali, sifati va amaliy qulayligiga ham katta ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Al-Zahroviy va boshqa musulmon tabiblar tibbiy asboblarni takomillashtirish orqali jarrohlik amaliyotining yanada samarali va xavfsiz bo'lishiga xizmat qilganlar.

O'rta asrlarda Al-Zahroviyning asarlari lotin, provansal va ibroniy tillariga tarjima qilingan hamda Uyg'onish davrida ko'p marotaba qayta nashr etilgan. Darhaqiqat, arab jarrohligi o'sha davrdagi lotin-yevropa jarrohligidan ancha ilgari ketgan edi. Arab tabiblari juda erta davrlardanoq murdalarni yorib o'rganish (disseksiyalash) bilan shug'ullangan, shuningdek antiseptika va anesteziya usullari bilan tanish bo'lganlar. Shunga qaramay, ular jarrohlik amaliyotini eng so'nggi chora (*ultima ratio*) deb hisoblaganlar va unga faqat favqulodda zarurat tug'ilgandagina murojaat qilish lozim deb bilganlar [7].

Xulosa qilib aytganda, Abu al-Qosim al-Zahroviy o'rta asrlar islom tibbiyotining eng buyuk namoyandalaridan biri bo'lib, uning ilmiy faoliyati jarrohlik va tibbiyot taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. U yaratgan "Al-Tasrif" asari o'z davrining eng mukammal tibbiy ensiklopediyalaridan biri bo'lib, unda tibbiyotning nazariy va amaliy jihatlarini batafsil yoritilgan. Al-Zahroviy tomonidan tavsiflangan ko'plab jarrohlik usullari va tibbiy asboblarning keyinchalik Yevropa tibbiyotiga kirib borib, uzoq vaqt davomida qo'llanilgan. Uning anatomiya, farmakologiya va tibbiy etika haqidagi qarashlari ham tibbiyot ilmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli al-Zahroviy nafaqat al-Andalus, balki jahon tibbiyoti tarixida ham alohida o'rin egallaydi va zamonaviy jarrohlikning shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pekesen, M., Ataman, A. D., & Vatanoglu-Lutz, E. Abu Al Qasim Al Zahrawi (Albucasis): The father of modern surgery // Health Sci Q. 2021; 2: 83-86. science. p. 84.
2. Abdoli, M., & Mahlooji, K. Potential source of Al-Zahrawi's knowledge of surgical instruments in the book of Al-Tasrif (10th AD). // Acta Chirurgica Belgica, 125(2), 2025. pp .113-119.
3. Castells M. Medicine in al-Andalus Until the Fall of the Caliphate // The Formation of al-Andalus, edited by Maribel Fierro and Julio Samsó. New-York: Routledge, 2017. p. 400.

4. Hassan Chamsi-Pasha FRCP, F. A. C. C. The contribution of Islamic culture to the Development of Medical Sciences // History, 6(2), 2020. p. 4.
5. Butt I. Brief Introduction of Az-Zaharawi's Contributions in Science // Int.Jol.Pathol, 15(1). pp. 38-41.
6. Käs F. Medical instruments // Routledge handbook on the sciences in islamicate societies, edited by Sonja Brentjes. New-York: Routledge, 2022. p. 506.
7. Burckhardt. T. Moorish culture in Spain. Lahore: Suhail Academy, 1997. p. 70.